Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	923
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
Сущность и причины возникновения проблемных кредитов	929
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar" dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikani integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	



O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Tashmatova Rano Gaibovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrası dotsenti

ORCID: 0000-0002-3003-3829

Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Moliya yo'nalishi magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish imkoniyatlari va istiqbollari, raqamli moliyaning asosiy tendensiyalari, milliy strategik tashabbuslar hamda zamonaviy texnologiyalar ko'rib chiqilgan. Moliya tizimini raqamlashtirish bo'yicha milliy strategiya va uning rivojlanish jarayoni tahlil qilingan. Blokcheyn tushunchasi hamda uning milliy iqtisodiyotga ta'siri borasida so'z yuritilgan. Shuningdek, blokcheynning mamlakat moliya tizimini innovatsion rivojlantirishdagi o'rni ham o'rganilgan. Maqolada mavzu yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot va o'rganishlar asosida xulosalar keltirilgan. Shakllangan xulosalardan kelib chiqqan holda moliya tizimini raqamlashtirishning afzalliklari va uni yanada rivojlantirish bo'yicha umumiy taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: raqamli moliya, moliya tizimini raqamlashtirish, moliyaviy texnologiyalar, moliyaviy inklyuziya, blokcheyn, innovatsion rivojlanish, ekotizim, mamlakat moliya tizimi, valyuta.

Abstract: This article discusses the possibilities and prospects for the development of digitalization of the financial system, the main trends in digital finance, national strategic initiatives and modern technologies. The national strategy for digitalization of the financial system and the process of its development are analyzed. The concept of blockchain and its impact on the national economy is covered. Also, the impact of blockchain on the innovative development of the country's financial system was studied. The article contains conclusions based on the results of a study conducted within the framework of the topic under study. Based on the conclusions drawn, the advantages of digitalization of the financial system and general proposals and recommendations for its further development are presented.

Key words: digital finance, digitalization of the financial system, financial technologies, financial inclusion, blockchain, innovative development, ecosystem, country's financial system, currency.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности и перспективы развития цифровизации финансовой системы, основные тенденции цифровых финансов, национальные стратегические инициативы и современные технологии. Анализируется национальная стратегия цифровизации финансовой системы и процесс ее развития. Освещена концепция блокчейна и его влияния на национальную экономику. Также, было изучено влияние блокчейна на инновационное развитие финансовой системы страны. В статье содержатся выводы по результатам исследования, проведенного в рамках изучаемой темы. На основе сделанных выводов представлены преимущества цифровизации финансовой системы и общие предложения и рекомендации по ее дальнейшему развитию.

Ключевые слова: цифровые финансы, цифровизация финансовой системы, финансовые технологии, финансовая инклюзивность, блокчейн, инновационное развитие, экосистема, финансовая система страны, валюта.

KIRISH

Iqtisodiyotdagi global va mahalliy tendensiyalar, texnologik rivojlanish hamda jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Asosiy jihatlar quyidagilardan iborat: global tendensiyalar, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash, iqtisodiy o'sish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurash, milliy infratuzilmani rivojlantirish, aholini qo'llab-quvvatlash va foydalanuvchilarning moliyaviy xatti-harakatlarini o'zgartirish.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi ““Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son'li Farmonida keltirilganidek, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi ishlab chiqilgan [1].

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, jahonda raqamli moliyaviy texnologiyalarga o'tish jarayoni jadal rivojlanmoqda: onlayn banking, fintech, blokcheyn, mobil to'lovlar va platformalar tobora ommalashmoqda. Global maydondagi raqobat moliyaviy xizmatlarni samarali, shaffof va qulay raqamli yechimlar orqali taqdim etishni talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalar – mobil ilovalar, elektron hamyonlar va onlayn banking vositasida – ko'proq aholini qamrab olish imkonini bermoqda.

Moliya tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi jarayonlarni avtomatlashtirish, inson omilini kamaytirish va shaffof nazorat mexanizmlarini yaratish orqali korrupsiya darajasini pasaytirishga yordam beradi. Blokcheyn texnologiyalari va avtomatlashtirilgan yechimlardan foydalanish suiiste'mol holatlarini kamaytiradi. Onlayn to'lov tizimlarini rivojlantirish (Uzcard, Humo), davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy raqamli platformalarini yaratish (masalan, my.gov.uz) kabi loyihalar raqamlashtirishda hozirdanoq muvaffaqiyatli natijalar bermoqda. Bank sektorini raqamlashtirishni jadallashtirish va fintech yechimlarini joriy etish umumiy investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda naqd pulsiz to'lovlar va onlayn xizmatlar keng ommalashdi. Foydalanuvchilar tobora ko'proq qulay va tezkor raqamli yechimlarni tanlashmoqda. O'zbekistonda yosh avlod mobil texnologiyalardan faol foydalanmoqda, bu esa zamonaviy moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda [2].

Yuqorida keltirilgan fikrlar ushbu yo'nalishning dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotda obyekt sifatida moliya tizimi tanlangan, predmeti esa moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanishiga oid tashkiliy asoslar hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mualliflar A. Xamraev va boshqalar tomonidan tayyorlangan “O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamlashtirishning o'rni” nomli maqolada mamlakat iqtisodiyoti uchun raqamlashtirishning amaliy ahamiyati va strategik yo'nalishlari tahlil qilingan. Ushbu maqolada raqamli moliya vositalarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri, texnologiyalarni joriy etish jarayoni va ularning moliya tizimidagi o'rni chuqur o'rganilgan. “Iqtisodiyot va biznes” jurnalida 2023-yilda chop etilgan mazkur maqola, ayniqsa, raqamli infratuzilma orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shuvchi omillarni ochib bergani bilan ahamiyatlidir [2].

Shuningdek, “World Scientist” xalqaro ilmiy jurnalining 13-sonida chop etilgan “Raqamli moliya va kriptovalyutalar sohasidagi imkoniyatlar” maqolasida mualliflar raqamli moliyaning global rivojlanish omillari, kriptovalyutalarning iqtisodiy tizimlarga ta'siri va blokcheyn texnologiyalarining moliyaviy barqarorlikka bo'lgan ta'sirini o'rganadilar. Maqolada kriptovalyuta bozorining kengayishi, uning moliyaviy tizimdagi pozitsiyasi va xalqaro tajribalar asosida tahlillar keltirilgan [3].

“Fan xabarnomasi” xalqaro ilmiy jurnalining No7 (52), T4-sonida chop etilgan “Moliya tizimini raqamlashtirish va moliyaviy mexanizmlar” nomli maqolada I. Ilyasov va A. Xudayqulieva tomonidan raqamli to'lov tizimlari, moliyaviy xizmatlarning transformatsiyasi va texnologik innovatsiyalarning moliya sektori faoliyatiga ta'siri tahlil etilgan. Mualliflar raqamli innovatsiyalarni joriy etishning ijobiy va salbiy jihatlarini muhokama qilish orqali moliya bozorlarida yuzaga kelayotgan yangiliklarni tizimli ko'rinishda yoritadilar [4].

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlari raqamli moliya va bank sektoridagi o'zgarishlarning eng ishonchli manbasi hisoblanadi. Bu hujjatlarda banklarning texnologik salohiyati, raqamli xizmatlar ko'lami, kriptovalyutalarga rasmiy yondashuvlar va elektron to'lov tizimlarining rivojlanish holati bo'yicha batafsil statistik ma'lumotlar keltirilgan [5].

Davlat statistika qo'mitasi tomonidan taqdim etiladigan rasmiy statistik ma'lumotlar esa O'zbekiston iqtisodiyotining umumiy holati, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish darajasi va raqamli iqtisodiyotning tarkibiy o'sishini yorituvchi muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Bu ma'lumotlar ilmiy tahlillar uchun zarur empirik asos vazifasini bajaradi [6].

Mamlakat taraqqiyot strategiyasi doirasida faoliyat yurituvchi strategiya.uz rasmiy portali orqali O'zbekiston moliya tizimining raqamlashtirilishi, moliyaviy texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq hukumat tashabbuslari va qonunchilik asosida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida keng qamrovli ma'lumotlar berilgan. Saytda moliya sektori raqamlashtirishning istiqbollari va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlovchi choralar haqida yoritilgan [7].

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



Xalqaro nuqtayi nazardan esa Jahon banki tomonidan chop etilgan “Raqamli moliya: rivojlanayotgan mamlakatlar istiqbollari va muammolari” nomli hisobot muhim manba hisoblanadi. Ushbu hisobotda raqamli moliya vositalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi, ularning joriy etilishidagi texnik va institutsional to‘siqlar, shuningdek, raqamli transformatsiyaning xavfsizlik jihatlari tahlil etilgan [8].


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mamlakatda raqamlashtirish va uni yanada rivojlantirish sohasidagi fundamental tadqiqotlar metodologik asosni tashkil etadi. Ushbu yo‘nalishda tuzilmaviy, mantiqiy va tizimli yondashuvlar, shuningdek, ekonometrik usullardan foydalanilgan. Mazkur tadqiqot uslubiyo‘tini aniqlashda olimlar va soha mutaxassislari bilan suhbatlar o‘tkazildi, ularning yozma va og‘zaki fikr-mulohazalari tahlil qilindi, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, hamda muallif tajribasi asosida qiyosiy tahlil orqali tegishli yo‘nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyidagi chizmada 2021–2023-yillar davomida mamlakatda axborot va aloqa sohalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi keltirilgan. Unga ko‘ra, mazkur davr mobaynida xizmatlar hajmi 2021-yildagi 17,1 trillion so‘mdan 2023-yilga kelib 32,2 trillion so‘mga yetgan. Bu esa 15,2 trillion so‘m miqdorida o‘shish kuzatilganini anglatadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Markaziy bankining tezkor to‘lov tizimi orqali amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bu holat raqamli moliyaviy vositalarning qulayligi va ulardan foydalanish imkoniyatlarining kengayayotganidan dalolat beradi. 2023-yilda tranzaksiyalar soni 800 milliondan oshgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2020-yildagi 6,9 million tranzaksiyaga nisbatan sezilarli darajada yuqori (1-rasm) [4].



1-rasm. 2021-2023-yillar davomida O‘zbekistonda axborot va aloqa sohalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatgan xizmatlar hajmi².

Ushbu platformalarning muvaffaqiyatli joriy etilishi va samarali ishlashi fuqarolarning raqamli yechimlarga bo‘lgan ishonchini oshiradi hamda ularning naqd pulsiz hisob-kitoblar va boshqa zamonaviy moliyaviy texnologiyalarga o‘tishini rag‘batlantiradi (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning tezkor to‘lovlar tizimidagi operatsiyalari³.


	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Tranzaktsiyalar hajmi (trln so‘m)	319,6	446,4	570
O‘shish sur‘ati (%)	149,1%	39,7%	27,7%
Tranzaktsiyalar soni (million)	12,6	17,6	22
O‘shish sur‘ati (%)	134,6%	39,7%	25%

² O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi hisobotlari ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

³ Mualliflar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari ma‘lumotlari asosida ishlab chiqilgan




Fintech kompaniyalarining rivojlanishi onlayn kreditlash xizmatlari, investitsiya platformalari va moliyaviy maslahatlarni taklif qiluvchi startaplar sonining oshishiga imkon yaratadi, shuningdek, qarz oluvchilarni investorlar bilan vositachilarsiz bevosita bog'laydigan xizmatlar sonini ko'paytirishga yordam beradi (2-rasm).



2-rasm. 2021-2023-yillarda O'zbekistonda onlayn-banking xizmatlaridan foydalanuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) soni⁴.

Bank sohasida raqamli xizmatlar. Masofadan hisobvaraqlar ochish, pul o'tkazmalari, mobil ilovalar orqali xizmatlar uchun to'lovlar hamda avtomatlashtirilgan scoring tizimi yordamida onlayn kredit arizalarining hajmi ortib bormoqda. Ushbu raqamli xizmatlar bank faoliyatining qulayligi, tezkorligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda. Investitsiyalar. Raqamli moliya investorlarga kriptovalyutalar yoki boshqa raqamli aktivlar kabi innovatsion investitsiya imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Ushbu yo'nalish raqamli aktivlarga bo'lgan talabni oshirib, global investitsiya maydonida yangi yondashuvlar shakllanishiga zamin yaratmoqda (3-rasm).



3-rasm. 2021-2023-yillarda mamlakatda axborot va aloqa sohalarida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi⁵.

So'nggi uch yilda bu sohaga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi ikki baravarga ortib, 2021-yildagi 3,5 trillion so'mdan 2023-yilda 6,8 trillion so'mga yetdi. Shu bilan birga, investitsiyalarning salmoqli qismi xorijiy manbalar hisobiga to'g'ri kelmoqda, bu esa O'zbekistonning raqamli infratuzilmasini rivojlantirishga xalqaro qiziqish mavjudligini ko'rsatadi [6].

Shuni alohida qayd etish kerakki, bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2,2 foizni tashkil etadi [7].

Raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2021-yildagi 2,2 foizdan 2023-yilda 3 foizga oshgani "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi. Ushbu o'sish moliyaviy tizimga raqamli texnologiyalarning faol joriy etilishi, elektron tijorat hajmining ortishi va IT infratuzilmasining kengayishi bilan bog'liqdir (2-jadval). [8].

4 Mualliflar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan

5 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan

2-jadval. 2021-2023-yillarda raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi hajmi va ulushi⁶.

	2021 yil	2022 yil	2023 yil
YalIM (milliard dollarda)	69,2	80,4	90,8
Raqamli iqtisodiyot hajmi (milliard dollarda)	1,52	2,09	2,7
Raqamli iqtisodiyotning YalIMdagi ulushi (%)	2,2%	2,6%	3%

Respublikada 50 dan ortiq to'lov tizimlari va 3 ta raqamli bank faoliyat yuritmoqda. So'nggi to'rt yil davomida Davlat xizmatlarining yagona reyestri orqali ko'rsatilayotgan raqamli davlat xizmatlari soni 3,5 barobarga oshgan. Onlayn-banking foydalanuvchilari soni esa 34 million nafarga yetgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan raqamli valyuta (CBDC) yaratish tashabbusi pul muomalasi ustidan nazoratni kuchaytirish va valyuta ekotizimini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Kredit berish, steyking va markazlashmagan savdo xizmatlarini taklif qiluvchi DeFi platformalarining paydo bo'lishi raqamli moliyaviy tizim rivojlanishining yangi bosqichini boshlab berdi. Davlat bunday tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun risklarni minimallashtirishga qaratilgan tartibga solish mexanizmlarini joriy etishi mumkin. Bu jarayonlar ko'proq investorlarni jalb qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Platformalarning kiberxavfsizligini ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun elektron hamyonlardagi ma'lumotlarni himoya qilish texnologiyalariga, jumladan, shifrlash va ko'p faktorli autentifikatsiyaga sarmoya kiritish talab etiladi. Shuningdek, xakerlik hujumlariga qarshi hodisalarga javob berish markazlarini tashkil etish lozim. Tartibga solishni kuchaytirish, infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuv O'zbekiston uchun iqtisodiy o'sishning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

Raqamli moliyaning rivojlanishi bilan birgalikda aholining raqamli va moliyaviy savodxonligini oshirish zarur. Buning uchun fuqarolarga raqamli moliyaviy vositalardan foydalanishni o'rgatuvchi ta'lim dasturlarini joriy etish, tadbirkorlarni esa jarayonlarni avtomatlashtirish va xarajatlarni optimallashtirish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish lozim.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirish borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining ortishi, IT-sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning o'sishi va raqamli to'lov tizimlarining ommalashuvi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini ko'rsatadi. Blokcheyn va raqamli to'lovlar kabi zamonaviy moliyaviy texnologiyalar mamlakat iqtisodiy ekotizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Raqamli moliya tizimini yanada muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun O'zbekiston quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratishi zarur:

- Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni moliyalashtirishni ko'paytirish. Bu yangi texnologiyalarni joriy etishni tezlashtiradi va ularning samaradorligini oshiradi.
- Kiberxavfsizlikni mustahkamlash. Foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish va moliyaviy tahdidlarning oldini olish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.
- Aholining raqamli va moliyaviy savodxonligini oshirish. Bu raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi va yangi mahsulotlarga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Istiqbolli yo'nalishlar qatoriga xalqaro moliyaviy tizimlar bilan integratsiyalashuv, transchegaraviy to'lovlarni rivojlantirish, tranzaksiyalarning shaffofligini oshirish uchun blokcheyn texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, blokcheyn infratuzilmasiga sarmoyalarni jalb etish kiradi. Bundan tashqari, raqamli xizmatlar orqali moliyaviy inklyuzivlikni oshirish fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirish – barqaror iqtisodiy o'sishni, investitsiyalar oqimini va mamlakatning global raqobatbardoshligini ta'minlaydigan zamonaviy va texnologik ilg'or ekotizimni shakllantirishga qaratilgan strategik yo'nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. Xamraev A. va boshqalar "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamlashtirishning o'rni". //“Iqtisodiyot va biznes” jurnali, 2023.
3. Ilyasov I., Akmmammedova O., Durdymradova O., Kovusova E., Ortiqov R.. //“World Scientist” xalqaro ilmiy jurnali 13-son, 1-jild, "Raqamli moliya va kriptovalyutalar sohasidagi imkoniyatlar", Ilyasov I., Xudayqulieva A.. //“Fan xabarnomasi” xalqaro ilmiy jurnali No7 (52) T 4, "Moliya tizimini raqamlashtirish va moliyaviy mexanizmlar"

6 Jahon banki hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan



4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlari [Elektron resurs] // O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti. www.cbu.uz.
5. O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistikasi [Elektron resurs] // O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. www.stat.uz.
6. O'zbekiston iqtisodiyoti va moliya tizimini raqamlashtirish [Elektron resurs] // O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining rasmiy sayti. strategiya.uz.
7. Jahon banki. "Raqamli moliya: rivojlanayotgan mamlakatlar istiqbollari va muammolari". Manba: worldbank.org



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>